

## XVII VA XIX ASRLARDAGI ABULG‘OZIY BAHODIRXON VA MUNIS ASARLARI TILI

**Qilichova Sevara**

ChDPU,O‘TA 2-bosqich talabasi

**Muratova Nafisa Baxtiyarovna**

Ilmiy rahbar

### ANNOTATSIYA

*Maqolada Abulg‘oziy Bahodirxon va Munisning tilshunoslikka oid qarashlari, xususan, fonetikaga, morfologiyaga va sintaksisga oid qarashlari ochib berilgan. Bular XV asrdagi Navoiy asarlariga ham qiyoslangan. Ayrim o‘rinlarda hozirgi o‘zbek tiliga yaqin va farqli jihatlari ham ko‘rsatilgan.*

**Tayanch so‘zlar:** «Shajarayi turk», «Shajarayi tarokima», fonetik xususiyatlar, izofali qurilmalar, grammatik shakllar, «Muzokirul-ashob», «Muntaxab ul-lug‘at», Bobur, xalq shevalari.

Bir davr adabiy tili haqida gap ketganda, ma’lum ma’noda o’sha davr tilida mahalliy shevalar ham bevosita ishtirok etadi. Manbalarning guvohlik berishicha, eramizdan oldingi asrlarda yaratilgan badiiy topilmalarda ham yoki bo‘lmasa Kultegin bitiktoshlarida ham oz bo‘lsa-da dialekt (sheva) aralashganligini ko‘rish mumkin.

Quyida biz aytmoqchi bo‘lgan XVII-XIX asrlar adabiy tili mahalliy shevalarga tayangan holda rivojlandi. O’sha davrda yaratilgan qomusiy asarlar, tuyuq va tazkiralar davr adabiy tilini mukammalroq o‘rganishga keng yo‘l ochadi. Xususan, Malohe Samarqandiyning «Muzokirul-ashob», Muhammad Xoksorning «Muntaxab ul-lug‘at» kabi asarlari yozildiki, bu asarlarda XVII-XVIII asrlarga doir siyosiy leksika va ilmiy atamashunoslik keng va dalillar bilan ko‘rsatilganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Shu va boshqa adiblarning asarlari tilida bevosita Navoiy an’anasi

davom ettirildi. Navoiy asarlarida esa bevosita Sharqiy Turkiston adabiy tili unsurlari sezilishini ko'rishimiz mumkin.

Abulg'oziy Bahodirxonning tilshunoslikka oid qarashlari haqida ma'lumot beruvchi «Shajarai tarokima» va «Shajarai turk» asarlari davr tilini XIV-XVII asrlardagi ko'rinishi haqida ma'lumot beradi. Abulg'oziy o'z asarlarini yozganda to'g'ridan to'g'ri jonli tilga murojaat qiladi va o'z oldiga «andoq aytmoq kerakkim, yaxshi va yomon barchalari bilib, ko'ngillariga ma'qul bo'lg'ay» degan maqsadni qo'yadi. Bundan tashqari til xususidagi uning qarashlari ancha ixchamlikka, bergen misollari esa anchayin izchillikka ega ekanligini ko'rish mumkin. Asarlari o'zining grammatik qurilishi, lug'at tarkibi bilan jonli so'zlashuvga yaqin turadi. Uning har ikkala asari tili ham murakkab emas. Chunki uning asarini o'qigan kishi muallif jonli so'zlashuvni qayta ishlagan deb o'ylaydi. Aslida ham shunday. Bevosita uning grammatikaga oid qarashlariga to'xtalamiz:

Fonetik qarashlari: *d* bilan boshlanuvchi so'zlarda ko'pincha bu tovush *t* ga o'zgaradi. Misol: *deduk-teduk*, *degan-tegan*, *deb-teb*.

Ba'zi hollarda, asosan, so'z boshida keluvchi *y* tovushi *j* tovushi bilan almashinadi: *yo'l-jul*. Bu misollarning birinchisi hozirda qo'llanilmaydi, ikkinchi holat esa bizdagi shevalarda ko'p uchraydi.

Abulg'oziy Bahodirxon aynan xalq tilini aynan ko'chirib asar bitmagan, balki o'sha tildan foydalanib uning dialekt (sheva) ini ko'rsatib bergen.

Morfologik xususiyatlari: Navoiy davrida, u yaratgan qator asarlarda *-chi* qo'shimchasi unumdor ot yasovchi vazifasini bajaradi. Hatto u shaxs otini yasashda turli nomdagi shaxs otlarini yasashga xizmat qilgan. Bu hodisani u "Muhokamat ul-lug'atayn"da ham maxsus izohlab o'tadi. Jumladan "hunar va pesha egasi" ma'nosini bildiradi: tamg'achi, jibachi, yurg'achi. Bundan ko'rinish turibdiki, hozirgi o'zbek tilidagi *-voz*, *paz*, *kabi* qo'shimchalarning vazifasini bitta *-chi* yasovchisi bajargan.

XVII asrga kelib bu qo'shimcha kam qo'llanadi va u bilan teng holatda *-ji* yasovchisi ham keladi.

Navoiy davrida *qayiqchi*, Abulg'oziy Bahodirxon asarlari tilida *elchi* (Izoh: hozirgi o'zbek adabiy tilida *elchi* so'zi yasalmagan).

Abulg'oziy Bahodirxon asarlari tilida oltita kelishik mavjud bo'lgan. Tushum kelishigining qo'shimchasi *-ni* ba'zan *-n* qo'llangan. Chiqish kelishigi qo'shimchasi *-din*, *-tin* shakliga ega bo'lgan: *tuproqdin*.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida ham 6 ta kelishik borligi tilimizning XVII asr adabiy tiliga o'xhash ekanligini bildirsa, ularning qo'shimchalar jihatdan farqli ekanligini ko'rish mumkin.

Sonlar, ularning yasalishi hozirgi o'zbek tiliga o'xshaydi. Tartib sonlar hozirda *-inchi* va *-nchi* affikslar yordamida hosil qilinsa, bu davrda *-lanchi*, *-lenchi* qo'shimchalari yordamida hosil bo'lgan: *beshlenchi*, *toquzunchi*.

Yordamchi so'z turkumlari Abulg'oziy Bahodirxon asarlarida xuddi Boburnomadagi kabi shakllarda qo'llanilgan.

Navoiy davridagi sintaksisga e'tibor bersak, qo'shma gaplardan ko'proq foydalanilganligini "Munshaot"asari orqali ko'rish mumkin. XVII asrga kelib, xususan, Abulg'oziy asarlarida sodda gap turlaridan foydalanilgan. Leksik jihatdan Navoiy davri adabiy tiliga anchayin yaqin. Asarlarda *ulus* (xalq), *kimarsa* (kimdir), *kent* (qishloq) kabi so'z shakllaridan keng foydalanilgan.

Bunday an'anadan Munis ham chetga chiqmagan holatda ijod qildi. Shoir o'z asarlaridan birida o'zi yashab turgan davr uchun xos va mos bo'lgan badiiy vositalardan keng qo'llaganligini aytib o'tadi: *gani husn*, *guli latif*, *mehrobi tarh*, *motami oshufta*, *guli gulshan* kabi. U asarlarida xalq tilida mavjud bo'lgan leksik boyliklardan mahorat bilan foydalanganligiga guvoh bo'lamic. Bular *umach*, atala, lang, qabag', tapuq va hokazolar.

*Muning birla bas qilmayin zulmu azar,*

*Itning julidan kimsaga sajjada bolurmu?*

Munis asarlarida turli shakldagi grammatik shakllarni uchratamizki, ularning ayrimlari hozirgi o'zbek adabiy tilidan farq qiladi. Yuqorida keltirilgan parchada qaratqich kelishigi qo'shimchasi *-ning*, *-ing* shakllarida keladi. Uning *-nung*, *-nun*, *-ing* ko'rinishlari ham mavjud bo'lgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa bitta *-ning* shaklidan foydalilanadi. Munis asarlari tilida bo'lgani kabi o'g'uz tilining ma'lum unsurlari ham uchraydi.

Navoiy tilida bo'lgani kabi Munis asarlari tilida *-mish* affiksi sifatdoshning o'tgan zamon shaklini yasagan: *salmish*.

Bu davr tili, umuman, poydevorni XV asrdagi turkiy til rivojlanishidan oladi. Navoiy va Bobur asarlarida bo'lgani singari *-man* (birinchi shaxs birlikda tuslangan fe'lning bo'lishsiz shakli) qo'shimchasi bilan beriladi: *bilman*. Bu qo'shimcha esa o'zgarishsiz hozirda ham qo'llanilib kelmoqda.

Mana, ikkala olimning tilshunoslikka oid qarashlari bilan oz bo'lsa ham tanishdidik. Abulg'oziy Bahodirxon asarlari tilida tushunilishi oson bo'lgan so'zlar talaygina, Munis asarlari tili sodda. Ikkala yozuvchi ham bu yozish usulini Boburdan olgan degan xulosaga kelish mumkin. Farqi shundaki, Bobur xalq tushunishi uchun sodda tilda yozgan bo'lsa, bu ikki olim o'zlari yashab turgan xalq shevalaridan foydalangan holda tushunarli yozishga urinishgan. Mana shunday qiyoslash chog'ida ikkala adib asarlarining tili haqida, qolaversa, davr tili haqida ma'lumotga ega bo'lamiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. U. Tursunov, U. Bozorov, A. Abdug'ani « *O'zbek adabiy tili tarixi* ». Toshkent. « *O'qituvchi* »—1995.
2. Sanaqulov « *O'zbek adabiy tili tarixining ilk davrlari* ». Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2004
3. Abulg'oziy Bahodirxonning « *Shajarai turk* » asari
4. Abulg'oziy Bahodirxonning « *Shajarai tarokima* » asari
5. Shermuhammad Munisning « *Munisul-ushshoq* »
6. Shermuhammad Munisning « *Devoni Munis* » asari.